

NIMA UCHUN CHET TILLARINI O'RGANAMIZ?

Jurakulova Arofat

O'zbekiston Milliy Universiteti 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Dunyodagi barcha davlatlar asta-sekinlik bilan chet tillarini o'rganishga e'tibor qaratmoqda. Bu maqolamda chet tillarini o'rganishning bir necha samarali usullari va sabablari haqida gapirib o'tmoqchiman.

Kalit so'zlar: chet tillari, o'rganish usullari, til o'rganish uchun maxsus ilovalar, motivatsiya.

Atrofga nazar solsak, hamma qaysidir tilni o'rganayotganini ko'ramiz. Har bir qadamimizda chet tillarini o'rgatuvchi maxsusus o'quv kurslari va reklamalarga ko'zimiz tushadi. Albatta, chet tillarini o'rganish natijasida kommunikativ imkoniyatlarimiz kengayishi, nufuzliroq ishga kirish imkoniyati oshishini haqida bilamiz ammo, chet tillarini o'zlashtirishning bir qator jihatlari ham bor. Til o'rganish uzoq bir sabr talab qiladigan mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Til o'rganish aqlni charxlaydi. Inson istalgan chet tilini o'rganish jarayonida miyasi borgan sari yaxshi ishlay boshlaydi. Chet tilini o'rganar ekansiz, dunyoqarashingiz ham kengayib boradi va so'z boyligi jihatdan ancha boyiysiz. Xorijiy tilni o'rganib, o'z ona tilingizni qadrlay boshlaysiz.

Har qanday yangi tilni o'rganish sizga o'sha tilda yozilgan ma'lumotlar uchun yo'l ochib beradi. Xorijiy tilni o'rganish mohiyati- bu boshqa odamlar bilan muloqot qilishdan iborat. Buning ustiga ko'p til bilganlar bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishga moyil bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, ko'plab yoshlарimiz diqqat-e'tiborini dunyoda eng ko'p o'rganiladigan til ya'ni ingliz tiliga qaratmoqda. Men bugun aynan ingliz tili emas balki fransuz tili va uni o'rganish usullari haqida gapirib o'tmoqchiman.

Fransuz tili dunyodagi eng chiroyligi tillardan biri va muhabbat tilidir. Bu til o'rta asrlarda mashxurlikka erishdi va hozirgi kunda ham o'z mavqeini yo'qotmadi. Hozirda fransuz tili dunyoda eng ko'p gapiriladigan tillarning o'ntaligiga kiradi. Hamma ingliz tilini o'rganishiga qaramay, ko'pchilik hali ham fransuz tilini o'rganishni xohlaydi. Ba'zilar uchun bu ish uchun kerak bo'lsa, ba'zilar uchun esa bu yoqimli va qiziqarli hobbiga aylanib kelmoqda. Fransuz tili butun dunyo bo'ylab taxminan 175 million kishi ravon so'zlashadigan tildir. U Fransiyadan kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida va rasmiy ravishda jami 30 ta tilda so'zlashadi. Bu til dunyoda ingliz tilidan keyin ikkinchi eng ko'p o'qitiladigan tildir, shuning uchun uni o'rganish uchun juda ko'p sabablar mavjud.

Agar siz til o'rganishni sevimli mashg'ulotingizga aylantirsangiz uni o'rganish siz uchun yanada osonroq va maroqli bo'ladi. Bundan tashqari fransuz tilini bepul ilovalar orqali ham o'rganish mumkin. Bu bepul ilovalardan foydalanishingizning qulayligi shundaki, undan xoh ko'chada, xoh taksida bo'ling xohlagan vaqtingizda foydalanishingiz mumkin.

Duolingo ilovasi- bu ilova orqali siz ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishingiz mumkin. Ilovaga kirib o'rganmoqchi bo'lgan tilni tanlaysiz va darslar boshlanadi va u yerda ko'plab mashqlarni bajarasiz.

Memrise- til o'rgatuvchi yana bir bepul ilova. Bu ilova orqali til o'rganish Doulingo ilovasiga qaraganda ancha murakkabroqdir. Ammo ilovadan foydalanish osonligi foydalanuvchiga ko'plab tillarni o'rgata oladi. Darslarni pastki bosqichdan yoki to'g'ridan-to'g'ri yuqori bosqichdan boshlash imkon ham mavjud. Memrise ilovasining o'ziga xos usuli shundaki, u foydalanuvchiga yangi so'z va iboralarni o'rgatish usulidir.

Google tarjimon- kiritilgan matnni aynan o'sha tilda to'g'ri o'qilishiga va yozilishiga yordam beradi. Audio tugmasi bosilish orqali speaker matnni ikki xil formatda ya'ni tez va sekin o'qiy oladi. Google tarjimon matnni qo'lida yozish va gapirish orqali ham tarjima qilishi mumkin. Bundan tashqari, har qanday matnni kamera orqali rasmga olib tarjima qilish imkoniyatlari mavjud.

Til o'rganishda motivatsiya asosiy omil hisoblanadi. Har qanday faoliyatda bo'lgani kabi, inson biror ishni xohlamasdan qilsa yaxshi natijaga erisha olmaydi. Til o'rganishdagi natija va muvaffaqiyatga erishish uchun faqat motivatsiya misol bo'la oladi. Ba'zilar uchun fransuz tili shunchaki qiziqish bo'lishi mumkin, boshqalar uchun esa, bu muvaffaqiyatli martaba, ulkan zafarlarga erishish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda turlli lavozimlarga joylashishda kamida bitta chet tilini bilish majburiy holga aylandi. Aynan shu narsa butun dunyo xalqlari bilan o'z tillarini bilish orqali muloqot qilish imkonini berishga turtki bo'ladi. Ba'zan turli xil reklamatlariga ko'zimiz tushadi unda "**Bir haftada fransuz tilini o'rgatamiz**" nomli satrlar bo'ladi. Bunday noto'g'ri reklamatlariga ishonmang! Chet tilini o'rganish uchun bir necha oy kerak bo'ladi. 4-5 oylik mashg'ulotlardan so'ng esa odam fransuz tilida so'zlashi, o'qishi va yozishni boshlashi keyin esa bu til bilan takomillashtirishni boshlashi mumkin. Fransuz tilini tezda o'rganish uchun siz o'zingizni fransuz madaniyatiga singdirishingiz kerak. Buning uchun fransuz tilidagi kitoblarni o'qishingiz, musiqa tinglashingiz va badiiy filmlarini tomosha qilishingiz kerak bo'ladi. Bundan tashqari, bilimingizni oshirish maqsadida fransuz adabiyoti va san'at asarlari bilan tanishish va ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilishingiz mumkin. Asosiysi, istak, sabr va matonat bilan har qanday tilni o'zlashtirish qiyin emasligini esdan chiqarmaslik kerak.

Xulosa o'rnilida shuni aytmoxchimanki, rivojlanayotgan mamlakatimizga biroz bo'lsada hissamizni qo'shish, yoshlarga yaratilib berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadida chet tilini o'rgansak, biz ham kelajagi porloq yoshlarga aylanish uchun o'z imkoniyatlarimizni kengaytirgan bo'lamiz. Chet tilini o'rganishda oldingizga aniq maqsad qo'yish, fursat bo'lganda uyalmasdan muloqot qilish, chet tilini o'rganish jarayonini hayotingiz bilan moslashtirib borish va texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi. Qisqa qilib atganda, qaysi tilni o'rganishimizdan qat'iy nazar u bizga faqat foya olib keladi, dunyoqarashimizni kengaytiradi, oldimizda keng imkoniyatlar eshigi ochiladi. Yoshingiz yoki sharoitingizdan qat'iy nazar til o'rganishni boshlang!

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
2. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
3. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.

4. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
5. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
6. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
7. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
8. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
9. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
14. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
15. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
16. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
17. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).
18. <https://daryo.uz/2017/03/28/chet-tillarini-organishning-foydalari-nima-siz-bilmagan-5-ta-fakt>
19. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-o-rganishning-psixologik-jihatlari>